

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

JABBOROVA TOZAGUL XUJAMURODOVNA

**QASHQADARYO HAVZASI SUN'IY SUV TIPLARI IKKI PALLALI
MOLLYUSKALARI FAUNASI VA EKOLOGIK GURUHLARI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Jabborova Tozagul Xujamurodovna

Qashqadaryo havzasi sun'iy suv tiplari ikki pallali mollyuskalari faunasi va ekologik guruhlar..... 3

Жабборова Тозагул Хужамуродовна

Фауна двустворчатых моллюсков и экологические группы искусственных водоемов бассейна Кашкадарьи..... 21

Jabborova Tozagul Khuzhamurodovna

Fauna bivalve mollusks and ecological groups of artificial water types of Kashkadarya basin..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

JABBOROVA TOZAGUL XUJAMURODOVNA

**QASHQADARYO HAVZASI SUN'IY SUV TIPLARI IKKI PALLALI
MOLLYUSKALARI FAUNASI VA EKOLOGIK GURUHLARI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy talim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/B817 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nuu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Boymurodov Xusniddin Toshboltayevich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kuchboyev Abduraxim Ergashevich
biologiya fanlari doktori, professor

Karimqulov Abdulla Tadjikulovich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi PhD 03/30.12.2019.B.91.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "16" 03 kuni soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (+99867) 225-39-25, faks: (+99867) 225-39-25, e-mail: glsuinfo@edu.uz.).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (+99867) 225-39-25, faks: (+99867) 225-39-25, e-mail: glsuinfo@edu.uz.).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "16" 03 kuni tarqatildi

(2024-yil "16" 03 daqi 4 -sonli reestr bayonnomasi bilan).



A.Pazilov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor

F.P.Gaibnazarova

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.d. (PhD) dotsent

E.B.Shakarboyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda urg'ochil mintaqalardagi daryolarning gidrologik rejimi, yillik va mavsumiy xarakterining doimiy o'zgarib borayotganligi suv havzalaridagi gidrobiontlarning biologik xilma-xilligiga salbiy ta'sir ortib bormoqda. Ayniqsa suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik, suv omborlari va baliqchilik xo'jaliklarining ko'plab tashkil etilishi natijasida gidrobiontlar faunasining transformatsiyalashuviga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra, arid hududlari suv havzalari uchun xos bo'lgan gidrobiontlarning zamonaviy holatini o'rganish va kamyob turlarini muhofazalash choralari ishlab chiqish muhim va ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda tabiiy ekotizimlar xavf ostida bo'lgan va iqlim o'zgarishiga moyil hududlardagi malakofauna vakillarini inventarizatsiyalash, zamonaviy usullar asosida endem, kamyob turlar populyatsiyalarini baholash, muhofazaga muhtoj turlarini saqlab qolish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada Markaziy Osiyoda, tabiiy landshafti qisqarib borayotgan geografik hududlardagi malakofauna tarkibini aniqlash, antropogen omillar ta'sirini monitoring qilish, tahdid ostida bo'lgan kamyob turlarning ekologiyasi va muhofazasiga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda tabiiy suv ekotizimlari barqarorligini ta'minlash, gidrobiontlari tarkibini aniqlash, bioresurslaridan foydalanish, zaif va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlariga antropogen omillarning ta'sirlarini hamda alohida ahamiyatga ega suv ekotizimlarini muhofazalash, bioresurslarini monitoring qilish, kamyob va endem turlari populyatsiyalari holatini baholash bo'yicha muayyan natijalarga erishildi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "Markaziy Osiyoda ekologiya, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va tabiatni muhofaza qilish borasida hamkorlikni yangi bosqichiga olib chiqish" bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda Qashqadaryo havzasi ikki pallali mollyuskalarining zamonaviy tarkibini aniqlash, turlarning turli suv havzalaridagi holatiga abiotik, biotik va antropogen omillar ta'sirini baholash, suvlarning sanitariya holatini saprob-indikator turlar yordamida tahlil qilish ustuvor vazifa hisoblanib, muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 noyabrdagi 914-son «Hayvonot va o'simlik dunyosi ob'yektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risida»gi qarori va 2019 yil 11 iyundagi 484-son «2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

texnologiyalarini rivojlanishning V “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ikki pallali mollyuskalarning tur tarkibini xorijlik olimlar B.K.Harvey et al. (1989), I. Anderson (1991), H.Thorp James, Covich Alanp (1990, 1991), D.C.Aldridge (1999,2000), H.Dan, Gu Ruobo (2002), P.Bouchet (2007), G.P.Alyokhina, I.A.Misetov, M.V.Puzakova (2007), A.E.Bogan (2010,2011), H.Markus (2010), A.E.Bogan (2010), Annabelle Cuttelod et al. (2010, 2011), D.D.Danilin (2012, 2014). Mollyuskalarning xo‘jalikdagi ahamiyati bo‘yicha tadqiqotlar K.Nagel, G.Badino (2001), Maria Haws (2002), A.V.Korniushin (2003, 2004, 2007), E.A.Moorkens, M.J.Costello (2005), P.Momir, C.Bela, S.Vladica (2006), N.Mamangkey et al (2009), R.N.Mamangkey, H.A.Salmon, P.C.Southgate (2009), S.Rahayu et al.(2009, 2010), V.E.Panov, et al. (2009), S.Yoshida, S.Rahayu et al. (2013), Y.Sata. (2013, 2014) va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

MDH mamlakatlarida mollyuskalarni tarqalishi, morfologiyasi, zoogeografiyasi, sistematikasini o‘rganish bo‘yicha V.I.Jadin (1948, 1952), Ya.I.Starobogatov, V.V.Pirogov (1971), A.F.Alimov (1981), S.I.Andreeva, M.V.Vinarskiy va bosh. (2006), G.P.Alyoxina va bosh.(2007), N.I.Andreev va bosh.(2008, 2009), S.V.Mejjerin va bosh.(2011), R.A.Mixaylov (2014) va boshqalarning ilmiy asarlarida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekistonda Unionidae, Pisididae, Euglesidae va Corbiculidae oilalari ikki pallali mollyuskalarning tarqalishi, zichligi bo‘yicha tadqiqotlar Z.I.Izzatullayev (2010, 2019, 2021, 2022), X.T.Boymurodov (2012, 2021, 2022, 2023), A.N.Egamqulov (2021), B.N.Otaqulov (2021) va boshqa olimlarning ishlarida keltirilgan.

Biroq, yuqoridagi tadqiqot ishlari Unionidae, Pisididae, Euglesidae va Corbiculidae oilasiga kiruvchi mollyuskalar turlari va tarqalishi to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotlar bera olmaydi. Shunga ko‘ra Qashqadaryo havzasining sun‘iy suv ekotizimlarida uchraydigan Unionidae, Pisididae, Euglesidae va Corbiculidae oilalari ikki pallali mollyuskalarining tur tarkibini aniqlash, ularning sun‘iy suv ekotizimlariga bog‘liq tarqalishini o‘rganish, kamayib ketgan endem turlar populyatsiyalarining holatini aniqlash va tarqalgan turlarning ilmiy asoslarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotlari rejasiga muvofiq Bio-01-2021 “Janubiy-g‘arbiy O‘zbekistonning hayvonot dunyosi faunasi, tarqalishi, ekologiyasi va muhofazasi hamda ulardan ratsional foydalanish” mavzusidagi reja doirasida bajarilgan(2020-2022yy).

Tadqiqotning maqsadi. Qashqadaryo havzasi sun‘iy suv tiplari ikki pallali mollyuskalari (Bivalvia: Unionidae, Pisididae, Euglesidae, Corbiculidae) tur tarkibi va bioekologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qashqadaryo havzasi suv tiplarida Bivalvia sinfining Unionidae, Pisididae, Euglesidae va Corbiculidae oilasi turlari tarkibini aniqlash va zamonaviy holatini baholash;

suv tiplarida tarqalgan ikki pallali mollyuskalarning taqsimlanishi, populyatsiyalardagi zichligi va biotoplarda tarqalishiga ekzogen omillarning ta'sirini tahlil qilish;

suv tiplarida uchraydigan ikki pallali mollyuskalarning bioekologik xususiyatlarini tadqiq etish;

morfologik jihatidan o'ta o'zgaruvchan turlarini molekulyar-genetik jihatdan tahlil qilish;

ikki pallali mollyuskalarning kamyob va endem turlarini muhofaza qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va indikator turlardan suv sifatini baholashda foydalanish istiqbollari ochib berish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Qashqadaryo havzasi sun'iy suv tiplarida tarqalgan Bivalvia sinfi Unionidae, Pisididae, Euglesidae va Corbiculidae oilalarining 14 turi va 2 kenja turi olingan.

Tadqiqotning predmeti Qashqadaryo viloyatidagi sun'iy suv havzalarida tarqalgan ikki pallali mollyuskalarning tur tarkibi, tarqalish bioekologik va bioindikatorlik xususiyatlarga bog'liqligi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada zoologik, malakologik, molekulyar-genetik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo havzasi sun'iy suv tiplari ikki pallali mollyuskalarining zamonaviy holati tahlil qilinib Bivalvia sinfining Unionidae, Pisididae, Euglesidae va Corbiculidae oilalariga mansub 14 ta tur va 2 ta kenja turi aniqlangan;

ikki pallali mollyuskalarning sun'iy suv tiplarida tarqalishi, zichligi ochib berilgan;

suv omborlarida tarqalgan *Corbicula cor* va *Corbicula purpurea* turlarini populyatsiyalarda yoshi va zichligiga suv muhiti omillarining ta'siri asoslangan;

o'ta o'zgaruvchan *Euglesa* avlodiga mansub *Euglesa turkistanica* turini yadro ichida transkripsiyalangan rDNK genlarining ITS-2 sohasi nukleotidlar ketma-ketligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sun'iy suv ekotizimlarining gidrologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda "Qizil kitob"ga kiritilgan *Corbicula cor*, *Corbicula fluminalis*, *Corbicula purpurea*, *Colletopterium bactrianum*, *Colletopterium cyreum sogdianum* turlari populyatsiyalarining dinamik guruhlari ajratilgan, holatiga ta'sir etuvchi ekologik omillar aniqlangan va muhofazalash tadbirlari ishlab chiqilgan;

ikki pallali mollyuskalarning 5 ta saproblik guruhlari aniqlangan va ulardan baliqchilik xo'jaliklarida suvlarning organik ifloslanish darajasini baholash hamda indikator sifatida foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

molekulyar genetik tadqiqotlar natijasida *Euglesa* avlodiga mansub *Euglesa turkistanica* turini rDNK ning ITS-2 sohasi 5.8S. uchastkasi nukleotidlar ketma-ketligi hamda molekulyar- filogenetikasi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda klassik va zamonaviy usullarning qo‘llanilganligi hamda ilmiy yondashuvlar, tahlillar asosida olingan natijalarning nazariy ma‘lumotlarga mos kelishi, ularning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, ilmiy hamjamiyat tomonidan davlat fundamental loyihalarini bajarish davomida tan olinganligi, olingan nukleotidlar ketma-ketligini BioEdit, Slustalx, Mega 6 dasturlari asosida tahlil qilinganligi va amaliy natijalarni vakolatli davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati suv ekotizimlarida tarqalgan Bivalvia: Unionidae, Pisididae, Euglesidae va Corbiculidae ikki pallali mollyuskalarining tur tarkibini aniqlanganligi; ikki pallali mollyuskalarning sun‘iy suv tiplarida tarqalishi, zichligi va bioekologik xususiyatlari ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar natijalarining amaliy ahamiyati ikki pallali mollyuskalarning indikator turlaridan suv sifatini baholashda foydalanish, endemik va noyob turlar xilma-xilligini muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo havzasi sun‘iy suv tiplari ikki pallali mollyuskalari faunasi va ekologik guruhlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

endem va noyob tur sifatida “Qizil kitob” ga kiritilgan *Corbicula cor*, *Corbicula fluminalis*, *Corbicula purpurea*, *Colletopterium bactrianum*, *Colletopterium cyreum sogdianum* larning Qashqadaryo havzasining turli suv tiplarida tarqalgan populyatsiyalarining dinamik xususiyatlari asosida ularni muhofazasi bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining Qashqadaryo viloyati hududi Yakkabog‘ va Qamashi tumanlar bo‘limlari faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining 2022 yil 1 fevraldagi 03-02/8-317-son ma‘lumotnomasi). Natijada, sun‘iy suv havzalaridagi suv rejimlarini mavsumiy boshqarish, noyob turlar tarqalgan qirg‘oqoldi biotoplarini saqlab qolish va inqirozga moyil 5 ta populyatsiyalarini muhofazalash imkonini bergan;

5 ta saproblik guruhlari asosida suvlarning organik ifloslanish darajasini baholash uchun ikki pallali mollyuskalardan indikator sifatida foydalanish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar I-OT-2019-21-raqamli "Tovar baliq chavaklarini yetishtirishda tabiiy ozuqa bazasi - plankton organizmlarni yetishtirish usullari va amaliy ahamiyati" mavzusidagi amaliy loyihada baliq yetishtiriluvchi havzalardagi suvlarning organik ifloslanish darajasini aniqlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Qo‘qon davlat pedagogika institutining 2021 yil 24 noyabr 704-son ma‘lumotnomasi). Natijada, baliqlarni intensiv ko‘paytiriluvchi suv havzalarida ifloslanishning mezasaprob, oligosaprob va katarobli zonalarini aniqlash hamda suvning sifati bo‘yicha sun‘iy havzalarda suvning almashinishini samarador boshqarish imkonini bergan;

morfologik belgilar bo‘yicha o‘ta o‘zgaruvchan xususiyatga ega *Euglesa* avlodiga mansub *Euglesa turkistanica* turini Molekulyar genetik tadqiqotlar rDNK

ning ITS-2 sohasi 5.8S. uchastkasi nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha ma'lumotlari Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NSBI) bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar milliy markazining (NCBI) 2023 yil 30 sentyabrdagi ma'lumotnomasi). Natijada, *Euglesa turkistanica* turi uchun OR616539-identifikatsiya raqami olingan va u xalqaro miqiyosda turni ikki pallali mollyuskalarning molekulyar-filogenetik shajarasidagi o'rnini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya tadqiqotlari natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shundan O'zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (2 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) 8 ta tezis xalqaro va mahalliy anjumanlarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, besh bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan. O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qashqadaryo havzasining suv tiplari ikki pallali mollyuskalari faunasining o'rganilishi”** deb nomlangan birinchi bobida ikki pallali mollyuskalarining o'rganilish tarixi bayon qilingan.

“Qashqadaryo havzasi tabiiy-geografik tavsifi, tadqiqot materiallari va metodlari” deb nomlangan ikkinchi bobida Qashqadaryo havzasi tabiiy geografik tavsifi, tadqiqot materiallari va metodlari haqida ma'lumotlar berilgan. Izlanishlar uchun materiallar 2014-2023-yillarda Qashqadaryo havzasi quyidagi suv tiplaridan yig'ildi; daryolar: Qashqadaryo, baliqchilik xo'jaliklari: Luxliko'l, Chimqo'rg'on, Qizilsuv, Sho'rsoy; suv omborlari: Qamashi, Nug'ayli, Chimqo'rg'on, Pachkamar, Hisorak, Dehqonobod va Yangiqo'rg'on; kanallar: Qarshi magistral, Pachkamar, Eski Anhor, Mirishkor va Xitoy ularga oqib kirayotgan va oqib chiqayotgan kanal hamda ariqlardan materiallar yig'ildi. Jami bo'lib, yig'ilgan va o'rganilgan joylardan 6457 dan ortiq namunalari olindi, mollyuskalar 12252 nusxani tashkil qiladi. Ushbu mollyuskalar namunalari fanda ma'lum bo'lgan va V.I.Jadin (1938, 1952), YA.I.Starobogatov, Z.I.Izzatullayev (1984), Z.I.Izzatullayev, X.T.Boymurodov (2009), Izzatullayev (2019) uslublari bilan o'rganildi. Daryolar

suvining gidrokimyoviy tahlillari uchun O‘zR VM Gidrometeorologiya xizmati markazining 2019-2021-yillardagi ma’lumotlaridan va biz tomonimizdan laboratoriyada olingan ma’lumotlardan foydalanildi. Qashqadaryo sun’iy suv tiplari gidrokimyoviy tarkibini Samarqand viloyati ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi bilan hamkorlikda umum qabul qilingan metodlar bilan aniqlandi. Suv oqim tezligini Gidrometrik vertushka – GR 21M bilan o‘lchandi. Molekulyar – genetik tadqiqotlar o‘tkazish uchun GeneJET GENOMIK DNK reagentlar to‘plamidan foydalanildi.







Dissertatsiyaning “**Qashqadaryo havzasi sun’iy suv tiplari ikki pallali mollyuskalarining taksonomik tahlili va biologik xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobida sun’iy suv tiplari ikki pallali mollyuskalarining taksonomik, molekulyar taksonomik tahlillari va biologik xususiyatlari keltirilgan.








Daryo havzasi sun’iy suv tiplarida ikki pallali mollyuskalarning 4 oila va 6 ta avlodga taalluqli, 14 turi va 2 kenja turining yashashi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Qashqadaryo havzasi sun’iy suv tiplari (Bivalvia: Unionidae, Pisididae, Euglesidae va Corbiculidae) ikki pallali mollyuskalarining ekologik-taksonomik tarkibi

№	Oila, avlod, tur	Yig‘ilgan joyi	Rasmi
Bivalvia Linne 1758 sinfi Unioniformes Stoliczka , 1871 turkumi Unionidae Rafinesque, 1820 oilasi Sinanodonta Modell, 1944 avlodi			
1.	<i>Sinanodonta gibba</i> (Benson, 1895)	Qashqadaryo daryosi, baliqchilik xo‘jaliklari: Luxliko‘l, Chimqo‘rg‘on; suv omborlari: Qamashi, Chimqo‘rg‘on, kanallar: Qarshi magistral, Pachkamar.	
2.	<i>Sinanodonta puerorum</i> (Heude, 1880)	Qashqadaryo daryosi baliqchilik xo‘jaliklari: Chimqo‘rg‘on, Qizilsuv; suv omborlari: Chimqo‘rg‘on, kanallar: Qarshi magistral, Pachkamar.	
3.	<i>Sinanodonta orbicularis</i> (Heude, 1880)	Qashqadaryo, baliqchilik xo‘jaliklari: Luxliko‘l, Qizilsuv, Sho‘rsoy; suv omborlari: Qamashi, Nug‘ayli, Chimqo‘rg‘on.	

Colletopterum Bourguignat, 1882 avlodi Colletopterum s.str. kenja avlodi			
4.	<i>Colletopterum (C.) bactrianum</i> (Rolle, 1897)	Qashqadaryo, omborlari: Qamashi, Chimqo'rg'on, Pachkamar.	
Ponderosiana Bourgiugnat, 1883 kenja avlodi			
5.	<i>Colletopterum (P.) cyreum sogdianum</i> (Kobielt, 1896)	Qashqadaryo, baliqchilik xo'jaliklari: Luxliko'l, Chimqo'rg'on, suv omborlari: Qamashi, Nug'ayli, Chimqo'rg'on, Pachkamar.	
6.	<i>Colletopterum (P) ponderosum volgense</i> (Shadin, 1938)	Qashqadaryo, suv omborlari: Qamashi, Nug'ayli, Chimqo'rg'on, Pachkamar, Hisorak, Dehqonobod va Yangiqo'rg'on.	
Euglesidae Pirogov, Starobogatov, 1972 oilasi Euglesa Leach in Jenyns, 1831 (in suni) Leach ,1855 (gen. valid.) avlodi			
7.	<i>Euglesa hissarica</i> (Izzatullaev ., Starobogatov, 1985)	Suv omborlari: Qamashi, Nug'ayli, Chimqo'rg'on, Pachkamar, Hisorak.	
8.	<i>Euglesa turkestanica</i> (Izzatullaev, 1974)	Suv omborlari: Qamashi, Nug'ayli, Chimqo'rg'on, Pachkamar, Hisorak.	
9.	<i>Euglesa obliquata</i> (Clessinin Martens, 1874)	Suv omborlari: Qamashi, Nug'ayli, Chimqo'rg'on, Pachkamar, Hisorak.	

Luciniformes Stoliczka, 1870 turkumi Pisididae Grau in Turton, 1854 oilasi Kuiperipisidium Kuiper, 1961 avlodi Kuiperipisidium Izzatullayev, Starobogatov, 1996 kenja avlodi			
10.	<i>Kuiperipisidium (K.) terekense</i> (Kazannikov in Izzatullayev., Starobogatov, 1985)	Suv omborlari: Qamashi, Nug‘ayli, Chimqo‘rg‘on, Pachkamar, Hisorak.	
11.	<i>Kuiperipisidium (K.) sogdianum</i> (Izzatullayev et Starobogatov, 1986)	Suv omborlari: Nug‘ayli, Chimqo‘rg‘on, Pachkamar, Hisorak.	
Cardiiformes Ferussac, 1820 turkumi Gray Corbiculidae, 1847 oilasi Sorbicula Meqerle, 1812, avlodi			
12.	<i>Corbicula cor</i> (Lamark , 1818)	Qashqadaryo, suv omborlari: Qamashi, Nug‘ayli, Chimqo‘rg‘on, Pachkamar, kanallar: Qarshi magistral, Pachkamar, Eski Anhor.	
13.	<i>Corbicula fluminalis</i> (O.F.Miiller, 1774)	Qashqadaryo, suv omborlari: Qamashi, Chimqo‘rg‘on, kanallar: Qarshi magistral, Pachkamar, Eski Anhor.	
14.	<i>Corbicula purpurea</i> (Prime, 1864)	Qashqadaryo, suv omborlari: Chimqo‘rg‘on, Pachkamar, kanallar: Qarshi magistral, Pachkamar, Eski Anhor.	
Corbiculina Dall , 1903 avlodi			
15.	<i>Corbiculina tibetensis</i> (Prashad, 1929)	Qashqadaryo, suv omborlari: Qamashi, Nug‘ayli, Chimqo‘rg‘on, Pachkamar, kanallar: Qarshi magistral, Pachkamar, Eski Anhor.	
16.	<i>Corbiculina ferghanensis</i> (Kursalova, Starobogatov, 1971)	Qashqadaryo, suv omborlari: Qamashi, Nug‘ayli, Chimqo‘rg‘on, Pachkamar, kanallar: Qarshi magistral, Pachkamar, Eski Anhor.	

Qashqadaryo havzasi sun‘iy suv tiplarida tarqalgan *Euglesa* avlodiga mansub *Euglesa turkistanica* turini rDNK ning ITS-2 sohasi 5.8S. uchastkasi nukleotidlar ketma-ketligi bo‘yicha ma‘lumotlar Biotexnologik axborotlar milliy markazi

(NSBI) bazasiga (<https://www.ncbi.nlm.nih.gov>) joylashtirildi.

Qashqadaryo havzasi sun'iy suv tiplarida Unionidae, Corbiculidae, Kuiperipisidium va Euglesidae oilasiga mansub turlar mart-aprel oylarida suv ekotizimlarda suv temperaturasining ko'tarilishi bilan bosqichma-bosqich ko'payishi kuzatildi. Unionidaelar tuxumlarini jabra yaproqchalari orasiga qo'yadi. Tuxumdan ikki pallali lichinka gloxidiy chiqadi. Corbiculidae oilasiga kiruvchi Corbiculina avlodi turlari tirik tuxum tug'uvchilar va Corbicula avlodi turlari tuxum qo'yuvchilar ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning “Qashqadaryo havzasi sun'iy suv tiplarida ikki pallali mollyuskalarning tarqalishi va ekologik guruhlari” deb nomlangan to'rtinchi bobida ikki pallali mollyuskalarning baliqchilik xo'jaliklarida, suv omborlarida, kanallarda tarqalishi va ekologik guruhlari yoritib berilgan. Qashqadaryo havzasidagi inson tamonidan barpo etilgan sun'iy suv tiplari hisoblangan Luxiko'l, Chimqo'rg'on, Qizilsuv va Sho'rsoy baliqchilik xo'jaliklarida tadqiqotlar olib bordik (2-jadval).

2-jadval

Qashqadaryo havzasi baliqchilik xo'jaliklarida Unionidae va Corbiculidae oilasi ikki pallali mollyuskalarning tarqalishi va ekologik guruhlari

№	Oila va turlar	Luxiko'l baliqchilik xo'jaligi	Chimqurg'on baliqchilik xo'jaligi	Qizilsuv baliqchilik xujaligi	Sho'rsoy baliqchilik xo'jaligi	Ekologik guruhlari
	Unionidae oilasi					
1.	<i>Sinanodonta gibba</i>	0,6±0,1	1,4±0,6	1,1±0,46	-	Peloreofil
2.	<i>Sinanodonta orbicularis</i>	1,1±0,4	1,2±0,4	1,2±0,56	1,0±0,1	Peloreofil
3.	<i>Sinanodonta puerorum</i>	-	1,3±0,5	-	-	Peloreofil
4.	<i>Colletopterum bactrianum</i>	-	0,6±0,1	-	-	Reofil
5.	<i>Colletopterum cyreum sogdianum</i>	-	1,4±0,4	1,4±0,2	-	Reofil
6.	<i>Colletopterum ponderosum volgense</i>	-	0,7±0,2	-	-	Pelolimnofil
	Corbiculidae oilasi					
7	<i>Corbicula cor</i>	-	1,8±0,6	1,8±0,2	-	Peloreofil
8	<i>Corbicula fluminalis</i>	0,8±0,3	2,1±0,7	-	-	Peloreofil
9	<i>Corbicula purpurea</i>	0,9±0,2	2,3±0,8	1,9±0,4	-	Peloreofil
10	<i>Corbiculina tibetensis</i>	3,4±0,4	3,6±0,6	-	3,0±0,7	Peloreofil
11	<i>Corbiculina ferghanensis</i>	2,6±0,5	2,9±0,7	3,0±0,6	2,6±0,4	Peloreofil
	Jami:	6	11	6	3	

Luxliko'lda 6 tur, Chimqo'rg'onda 9 tur va 2 kenja tur, Qizilsuvda 5 tur va 1 kenja tur va Sho'rsoyda 3 tur tarqalganligi, ular peloreofil, reofil va pelolimnofil ekologik guruhlariga mansubligi aniqlandi. Baliqchilik xo'jaliklaridan *Sinanodonta* avlodi turlari birinchi marta biz tomonimizdan ko'rsatilmogda. Baliqchilik xo'jaliklari va suv omborlari ikki pallali mollyuskalar uchun o'ziga xos muhitdir.

Bunday suv havzalarida eng ko'p tarqalgan avlod vakillaridan *Sinanodonta* avlodi vakillarini keltirish mumkin. Ayniqsa, *Sinanodontalar* uchun baliqchilik xo'jaliklari eng qulay bo'lgan suv havzasidir. Bunday havzalarda ularning zichligi maksimal qiymatga yetadi (masalan, Chimqo'rg'onda – $1,4/m^2$). Buni baliqchilik xo'jaliklarida loyli biotoplarning ko'pligi va yana ular ko'payishi hamda keng tarqalishi uchun baliqlarning mavjudligi bilan tushuntirish mumkin. *Sinanodonta* avlodi barcha turlarining zichligi baliqchilik xo'jaliklarida daryolarga nisbatan 1,3-1,5 barobarga ko'pdir.

Suv omborlarida turlar tarqalish zichligi bilan bir-biridan farq qiladi. Sun'iy suv havzalari bo'lib hisoblangan suv omborlarining barpo etilishi turlarning keng hududlarga tarqalishiga va areallarining kengayishiga olib kelgan. Qashqadaryo havzasidagi suv omborlarida tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik. Pachkamarda 9 tur va 1kenja tur, Chimqo'rg'onda 11 tur va 2 kenja tur, Qamashida 5 tur va 1 kenja tur, Hisorakda 7 ta tur, Dehqonobodda 5 tur, Nug'aylida 3 tur va Yangiqo'rg'onda 5 tur ikki pallali mollyuskalar tarqalganligi aniqlandi (3-jadval). Bu turlar biz tomonimizdan birinchi marta ko'rsatilmogda.

Qashqadaryo havzasi suv omborlari ikki pallali mollyuskalarining faunasini har tomonlama o'rganish muhim ahamiyatga ega. Suv ekotizimida tabiiy sharoitning xilma-xilligi noyob, endemik va relik turlarning tarqalishiga olib kelgan. Suv ekotizimlarida turlarning murakkab tarqalishi bilan birgalikda faunistik komplekslar, bir turning turli xil populyatsiyalari ekologiyasida farqlar nomoyon bo'lishi kuzatiladi.

Daryo havzasidagi Chimqo'rg'on, Pachkamar va Qamashi suv omborlarida tahlillar o'tkazildi. Chimqo'rg'on suv omborida suv harorati $14-22^{\circ}S$, tiniqligi $0,46-0,56$ m, xlorid (Cl) 262 ± 23 mg/l, suvning minerallashuvi 870 ± 68 mg/l, O_2 kislorod miqdori $5,2\pm 1,2$, neft va neft mahsulotlari $0,04\pm 0,1$ atrofida ekanligi aniqlandi. Bu hududda 13 tur ikki pallali mollyuskalar *Sinanodonta gibba*, *S.orbicularis*, *S.puerorum*, *Colletopiterum bactrianum*, *C.cyreum sogdianum*, *C.ponderosum volgense*, *Euglesa obliquata*, *Kuiperipisidium sogdianum*, *Corbicula cor*, *C.fluminalis*, *C.purpurea*, *Corbiculina tibetensis*, *C.ferghanensis* tarqalganligi o'rganildi.

Qashqadaryo havzasi suv omborlari suv ekotizimi muvozanatining buzilishi, xususan suv gidrorejimini buzilishi ma'lum darajada ikki pallali mollyuskalar tadqiq qilinayotgan turlarning miqdori va zichligiga ta'sir ko'rsatadi. Qashqadaryo havzasida sun'iy suv tiplarida ikki pallali mollyuskalarning tarqalishi va faunasining shakllanishi kanallar bilan bog'liq bo'lib, kanallar mollyuskalarning suv havzalariaro taqsimlanishining manbasi va yo'li hisoblanadi. Tabiiy suv ekotizimlarida uchraydigan *Corbicula* va *Corbiculina* avlodi turlarining sun'iy suv havzalarida uchrashi kanallarning o'tkazuvchilik ahamiyati bilan izohlanadi.

Tabiiy muhitning transformatsiya sharoitlarida ikki pallali mollyuskalar faunasi taksonomik tarkibining o'zgarishi antropogen faktorlar ta'siriga beriluvchan

bo'lgan stenobiont va tor arealli, noyob yo'qolib borayotgan turlarning miqdorini kamayishi kuzatiladi.

3 - jadval

Qashqadaryo havzasi suv omborlarida Unionidae, Euglesidae, Pisididae va Corbiculidae oilalari ikki pallali mollyuskalarining tarqalishi va ekologik guruhlarini

№	Oila va turlar	Pachkamar suv ombori	Chimqo'rg'on suv ombori	Qamashi suv ombori	Hisorak suv ombori	Dehqonobod suv ombori	Nug'ayli suv ombori	Zangoqo'rg'on suv ombori	Ekologik guruhlarini
1.	<i>Sinanodonta gibba</i>	-	1,1±0,4	0,7±0,1	-	-	-	-	Peloreofil
2.	<i>Sinanodonta orbicularis</i>	0,7±0,2	0,9±0,2	-	0,8±0,1	-	-	-	Peloreofil
3.	<i>Sinanodonta puerorum</i>	0,6±0,1	1,2±0,5	-	0,9±0,2	-	-	-	Peloreofil
4.	<i>Colletopterum bactrianum</i>	-	0,6±0,1	-	-	-	-	-	Reofil
5.	<i>Colletopterum cyreum sogdianum</i>	1,0±0,3	1,4±0,4	0,9±0,2	-	-	-	-	Reofil
6.	<i>Colletopterum ponderosum volgense</i>	-	0,8±0,2	-	-	-	-	-	Pelolimnofil
7.	<i>Euglesa hissarica</i>	2,1±0,5	-	-	-	2,1±0,4	-	-	Pelolimnofil
8.	<i>Euglesa turkestanica</i>	-	-	-	1,3±0,2	1,2±0,3	-	-	Pelolimnofil
9.	<i>Euglesa obliquata</i>	-	1,2±0,4	-	-	-	-	1,1±0,3	Pelolimnofil
10.	<i>Kuiperipisidium terekense</i>	1,8±0,4	-	-	-	-	-	1,3±0,2	Krenofil
11.	<i>Odhneripisidium sogdianum</i>	-	1,4±0,4	-	1,3±0,3	-	-	-	Krenofil
12.	<i>Corbicula cor</i>	1,2±0,3	1,5±0,4	1,3±0,5	-	-	1,1±0,2	-	Peloreofil
13.	<i>Corbicula fluminalis</i>	1,4±0,4	1,6±0,5	-	1,6±0,4	-	1,2±0,1	-	Peloreofil
14.	<i>Corbicula purpurea</i>	1,7±0,6	1,8±0,6	-	1,7±0,4	1,1±0,3	-	1,4±0,4	Peloreofil
15.	<i>Corbiculina tibetensis</i>	2,4±0,6	2,9±0,5	2,1±0,7	2,1±0,6	1,7±0,4	-	1,7±0,3	Peloreofil
16.	<i>Corbiculina ferghanensis</i>	2,8±0,7	3,1±0,4	2,2±0,3	-	1,9±0,5	1,4±0,3	1,8±0,4	Peloreofil
	Jami:	10	13	5	7	5	3	5	

**Qashqadaryo havzasi kanallarida Unionidae va Corbiculidae oilalari
ikki pallali mollyuskalarning tarqalishi va ekologik guruhlari**

№	Oila va turlar	Qarshi magistral kanali	Pachkamar suv omboridan chiqish kanali	Eski Anhor Kanali	Mirishkor Kanali	Xitoy Kanali	Ekologik guruhlari
	Unionidae oilasi						
	Sinanodonta avlodi						
1.	<i>Sinanodonta gibba</i>	1,4±0,3	-	1,2±0,3	1,1±0,2	-	Peloreofil
2.	<i>Sinanodonta orbicularis</i>	1,1±0,2	0,6±0,1	1,0±0,2	-	-	Peloreofil
3.	<i>Sinanodonta puerorum</i>	0,9±0,1	0,7±0,2	-	-	-	Peloreofil
	Colletopterum avlodi						
4.	<i>Colletopterum bactrianum</i>	0,6±0,1	-	-	-	-	Reofil
5.	<i>Colletopterum cyreum sogdianum</i>	1,8±0,5	-	0,6±0,1	1,5±0,4	-	Reofil
6.	<i>Colletopterum ponderosum volgense</i>	0,5±0,1	-	-	-	-	Pelolimnofil
	Sorbiculidae oilasi						
	Corbiculidae avlodi						
7	<i>Corbicula cor</i>	2,4±0,6	-	1,0±0,1	-	-	Peloreofil
8	<i>Corbicula fluminalis</i>	2,1±0,3	1,1±0,2	-	1,4±0,4	0,6±0,1	Peloreofil
9	<i>Corbicula purpurea</i>	1,9±0,2	0,9±0,1	-	1,0±0,2	0,7±0,2	Peloreofil
	Corbiculina avlodi						
10	<i>Corbiculina tibetensis</i>	3,0±0,7	2,4±0,5	-	1,9±0,4	1,1±0,3	Peloreofil
11	<i>Corbiculina ferghanensis</i>	3,1±0,4	2,8±0,6	1,8±0,4	2,1±0,7	0,9±0,2	Peloreofil
	Jami:	11	6	5	6	4	

Kanallardagi tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik. Qarshi magistral kanalida 9 tur va 2 kenja tur, Pachkamar kanalida 6 tur, Eski anhor 4 ta tur va 1 kenja tur, Mirishkor 5 ta tur va 1 kenja tur, Xitoy kanalida 4 tur ikki pallali mollyuskalar tarqalgan, ular 3 xil peloreofil, reofil va pelolimnofil ekologik guruhlarga mansub (4-jadval). Kanallarda tarqalgan Corbiculidae oilasiga mansub


turlar keng tarqalgan zichligi katta bo'lgan evribiont turlarga va Unionidae oilasi turlari zichligi kichik bo'lgan stenobiont turlarga kirishini aniqladik. Qashqadaryo sun'iy suv havzalarida ikki pallali mollyuskalarning tarqalishi va faunasining shakllanishi kanallar bilan bog'liq bo'lib, ular mollyuskalarning suv havzalariaro taqsimlanishining manbaasi va yo'li hisoblanadi. Baliqchilik xo'jaliklari va suv omborlari *Sinanodonta* avlodi turlarining boshqa suv tiplariga tarqalishiga olib kelgan. Tabiiy suv havzalari uchun xos bo'lgan *Corbicula* va *Corbiculina* avlodi turlarining sun'iy suv havzalarida uchrashi kanallarining bevosita o'tkazuvchilik ahamiyati bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning **“Qashqadaryo havzasi endemik va noyob turlar xilma-xilligini saqlash, indikator saprob turlaridan suv sifatini baholashda foydalanish”** deb nomlangan beshinchi bobida sun'iy suv tiplari endemik va noyob turlar xilma-xilligiga suv muhiti omillarining ta'siri, indikator-saprob turlari va ulardan suvning sifatini baholashda foydalanish yoritilgan.

Qashqadaryo havzasidagi suv omborlarda olib borgan o'rganishlarimiz suv muhiti omillarining ikki pallali mollyuskalarga ta'siri tahlil qilindi. Daryo havzasidagi sun'iy suv tiplari hisoblangan Chimqo'rg'on, Pachkamar va Qamashi suv omborlarida suv muhiti omillarining ikki pallali mollyuskalarga ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. Chimqo'rg'on suv omborida suv harorati 14-22 °S, tiniqligi 0,46-0,56 m, xlorid (Cl) 262±23 mg/l, suvning minerallashuvi 870±68 mg/l, O₂ kislorod miqdori 5,2±1,2, neft va neft mahsulotlari 0,04±0,1 atrofida ekanligi aniqlandi. Suv muhitining bu faktorlari gidrobiontlar tarqalishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu hududda 13 tur ikki pallali mollyuskalar *Sinanodonta gibba*, *S.orbicularis*, *S.puerorum*, *Colletopterum bactrianum*, *C.cyreum sogdianum*, *C.ponderosum volgense*, *Euglesa obliquata*, *Kuiperipisidium sogdianum*, *Corbicula cor*, *C.fluminalis*, *C.purpurea*, *Corbiculina tibetensis*, *C.ferghanensis* tarqalganligi o'rganildi. Pachkamar suv omborida suv harorati 12-20 °S, tiniqligi 0,48-0,58 m, xlorid (Cl) 224±12 mg/l, suvning minerallashuvi 881±69 mg/l, O₂ kislorod miqdori 5,1±1,0, neft va neft mahsulotlari 0,02±0,1 bo'lib suv muhiti omillari sifatida mollyuskalarga ta'sir ko'rsatgan, suv omborida 10 tur tarqalgan *Sinanodonta orbicularis*, *S.puerorum*, *Colletopterum cyreum sogdianum*, *Euglesa hissarica*, *Kuiperipisidium terekense*, *Corbicula cor*, *C.fluminalis*, *C.purpurea*, *Corbiculina tibetensis*, *C.ferghanensis*.

Qamashi suv omborida suv harorati 15-24 °S, tiniqligi 0,45-0,54 m, xlorid (Cl) 298±21 mg/l, suvning minerallashuvi 976±62 mg/l, O₂ kislorod miqdori 4,9±0,84, neft va neft mahsulotlari 0,05±0,1 bo'lib bu hududda *Sinanodonta gibba*, *Colletopterum cyreum sogdianum*, *Corbicula cor*, *Corbiculina tibetensis*, *C.ferghanensis* turlari uchraydi. Suv omborlarida turlar tarqalish zichligi bilan bir-biridan farq qiladi. Sun'iy suv havzalari bo'lib hisoblangan suv omborlarining barpo etilishi turlarning keng hududlarga tarqalishiga va areallarining kengayishiga olib kelgan. Chimqo'rg'on va Pachkamar suv omborlari ikki pallali mollyuskalar tarqalishi, oziqlanishi, ko'payishi, ekologik guruhlarining hosil bo'lishi uchun qulay bo'lgan suv havzasi bo'lib hisoblanadi, shuning uchun turlar soni va

zichligi katta. Qamashi suv ombori suv muhiti omillarining mollyuskalar tarqalishiga cheklovchi omil sifatida o‘z ta‘sirini ko‘rsatganligi sababli turlar soni nisbatan kam uchraydi. Qashqadaryo havzasi sun‘iy suv tiplarida ikki pallali mollyuskalarning endemik noyob va kam tarqalgan turlari tarqalgan. “Qizil kitob”ga kiritilgan Unionidae oilasidan *Colletopterum bactrianum*, *C.cyreum sogdianum* va Corbiculidae oilasidan: *Corbicula cor*, *C.purpurea* va *C.fluminalis*lar tarqalganligini aniqladik. Ushbu turlarning zichligi sun‘iy suv tiplarida kichik bo‘lib stenobiontlardir.




1-rasm. Qashqadaryo havzasi suv omborlarida tarqalgan “Qizil kitob”ga kiritilgan *Corbicula cor* ning populyatsiyalarida yoshi va zichligiga suv omillarining ta‘siri.

Sun‘iy suv havzalari bo‘lib hisoblangan Chimqo‘rg‘on, Pachkamar va Qamashi suv omborlarining barpo etilishi turlarning keng hududlarga tarqalishiga va areallarining kengayishiga olib kelgan. Chimqo‘rg‘on va Pachkamar suv omborlari ikki pallali mollyuskalar tarqalishi, oziqlanishi, ko‘payishi, ekologik guruhlarining hosil bo‘lishi uchun qulay bo‘lgan suv havzasi bo‘lib, turlar soni va zichligi katta. Qamashi suv ombori suv muhiti omillarining mollyuskalar tarqalishiga cheklovchi omil sifatida o‘z ta‘sirini ko‘rsatganligi sababli turlar soni nisbatan kam uchraydi. Chimqo‘rg‘on va Pachkamar suv omborlarida *Corbicula cor* va *Corbicula purpurea* turlari populyatsiyalari o‘sovchi populyatsiyalar ekanligini aniqladik.

Sababi yosh mollyuskalar tez ko‘payadi va populyatsiyada o‘zini tiklaydi. Qamashi suv ombori *Corbicula cor* va *Corbicula purpurea* lar populyatsiyalari kamayuvchi populyatsiyalar ekanligini ko‘rsatdi (1,2-rasm).

Baliqchilik xo‘jaliklarida β -mezasaprobli, ifloslangan suvlarda yashovchilar 4 ta, O-oligosaprobli – o‘rtacha iflos suvlarida 3 ta, suv omborlarda β -mezasaprobli, ifloslangan suvlarda tarqalgan 5 ta, K-katarobli, toza suvda yashovchilarning 4 ta va O-oligosaprobli-o‘rtacha ifloslangan suvlarda yashovchilarning 4 ta turi tarqalganligini tahlil qildik. Kanallarda esa β -mezasaprobli, ifloslangan suvlarda tarqalgan 4 ta va O-oligosaprobli-o‘rtacha ifloslangan suvlarda yashovchilarning 2 ta turi tarqalganligini aniqladik.



2-rasm. Qashqadaryo havzasi suv omborlarida tarqalgan “Qizil kitob” ga kiritilgan *Corbicula purpurea*ning populyatsiyalarida yoshi va zichligiga suv muhiti omillarining ta’siri.

XULOSALAR

“Qashqadaryo havzasi sun’iy suv tiplari ikki pallali mollyuskalari faunasi va ekologik guruhlari” mavzusidagi biologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Qashqadaryo havzasida sun’iy suv tiplari ikki pallali mollyuskalarining 4 oila va 6 avlodga mansub 14 turi va 2 kenja turi, toshloq biotoplarda 3 ta, qumloq biotoplarda 8 ta va loyli biotoplarda 6 ta turi tarqalganligi aniqlandi.

2. Qashqadaryo havzasidagi baliqchilik xo’jaliklarida Luxliko’lda 6 tur, Chimqo’rg’onda 9 tur 2 kenja tur, Qizilsuvda 5 tur 1 kenja tur va Sho’rsoyda 3 tur peloreofil, reofil va pelolimnofil ekologik guruhlarga mansubligi ko’rsatib o’tildi.

3. *Sinanodonta* avlodi turlarining ko’payishi, tarqalishi uchun qulay muhit bo’lganligi ularning zichligi baliqchilik xo’jaliklarida daryolarga nisbatan 1,3-1,5 marta ko’pligi qayd etildi.

4. Pachkamar suv omborida ikki pallali mollyuskalarning – 9 turi va – 1 kenja turi, Chimqo’rg’onda – 11 tur va – 2 kenja tur, Qamashida – 5 tur va – 1 kenja tur, Hisorakda – 7 ta tur, Dehqonobodda – 5 tur, No’g’aylida – 3 tur va Yangiqo’rg’onda – 5 turi hudud uchun xos turlar ekanligi aniqlandi.

5. Qarshi magistral kanalida ikki pallali mollyuskalarning 9 turi, 2 kenja turi, Pachkamarda 6 tur, Eski anhorda 4 tur, 1 kenja tur, Mirishkorda 5 tur, 1 kenja tur, Xitoy kanalida – 4 turi qayd etildi. Kanallarda keng tarqalgan va zichligi yuqori

bo'lgan evribiont turlar sifatida Corbiculidae oilasi, zichligi kichik bo'lgan stenobiont turlar sifatida esa Unionidae oilasi vakillari e'tirof etildi.

6. Qashqadaryo sohilida tarqalgan "Qizil kitob"ga kiritilgan ikki pallali mollyuskalar populyatsiyalarida yosh va zichligiga gidrokimyoviy ko'rsatkichlari o'z ta'sirini ko'rsatishi aniqlandi.

7. Baliqchilik xo'jaliklarida keng tarqalgan β -mezasaprobli, ifloslangan suvlarda yashovchilar 4 ta, O-oligosaprobli-o'rtacha iflos suvlarida 3 ta, suv omborlarda β -mezasaprobli, ifloslangan suvlarda tarqalgan 5 ta, K-katarobli, toza suvda yashovchilarning 4 ta va O-oligosaprobli-o'rtacha ifloslangan suvlarda yashovchilarning 4 ta turi qayd etildi. Kanallarda β -mezasaprobli, ifloslangan suvlarda tarqalgan 4 ta va O-oligosaprobli-o'rtacha ifloslangan suvlarda yashovchilarning 2 ta turi qayd etildi.

8. Molekulyar genetik tadqiqotlar natijasida *Euglesa* avlodiga mansub *Euglesa turkistanica* turini rDNK ning ITS-2 sohasi 5.8S. uchastkasi nukleotidlar ketma-ketligi, molekulyar- filogenetik o'rni aniqlandi.

9. Olingan nukleotidlar ketma-ketligi xalqaro Genbank (NCBI) bazasiga joylashtirilib: *Euglesa turkistanica* (OR616539) turining identifikatsiya raqamlari olindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD 03/30.12.2019.В.91.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ
ГУЛИСТАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЖАББОРОВА ТОЗАГУЛ ХУЖАМУРДОВНА

**ФАУНА ДВУСТВОРЧАТЫХ МОЛЛЮСКОВ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ
ГРУППЫ ИСКУССТВЕННЫХ ВОДОЕМОВ БАССЕЙНА
КАШКАДАРЬИ**

03.00.06 – Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Гулистан – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зафиксирована в Высшей Аттестационной Комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций под номером B2022.4.PhD/B817.

Диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.
Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Ученого совета (www.puu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Боймуродов Хусниддин Тошболтаевич доктор биологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Кучбоев Абдурахим Эргашевич доктор биологических наук, профессор Каримкулов Абдулла Таджикулович кандидат биологических наук, доцент
Ведущая организация:	Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится 16 03 2024 года 11⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD 03/30.12.2019.B.91.01 при Гулистанском государственном университете (Адрес: 120100, Сырдарьинская область, город Гулистан, 4-мкр. Тел.: (+99867) 225-39-25, факс: (+99867) 225-39-25, E-mail: glsuinfo@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Гулистанского государственного университета (зарегистрировано за № 4). Адрес: 120100, Сырдарьинская область, город Гулистан, 4-мкр. Тел.: (+99867) 225-39-25.

Автореферат диссертации разослан 16 03 2024 года
(реестр Протокола № от 4 16 03 2024 года).




А.Назимов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор


Ф.Н. Гаибназарова
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, д.ф.н.б. (Phd), доцент


Э.Б. Шакарбоев
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии(PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире на сегодняшний день постоянные изменения гидрологического режима, годового и сезонного характера рек засушливых регионов оказывает все большее негативное влияние на биоразнообразие гидробионтов в водоёмах. Особенно, нерациональное использование водных ресурсов, в результате организации большого числа водохранилищ и рыбных хозяйств, становится причиной трансформации фауны гидробионтов. Поэтому, изучение современного состояния гидробионтов, характерных для водоёмов засушливых территорий, и разработка мер по охране редких видов имеет важное и научно-практическое значение.

В мире ведутся научные исследования по инвентаризации представителей малакофауны в районах, где природные экосистемы находятся под угрозой исчезновения и подвержены изменению климата, оценке популяций эндемичных, редких видов на основе современных методов, сохранению нуждающихся в охране видов. В связи с этим, уделяется особое внимание определению состава малакофауны в Средней Азии, в географических районах с сокращающимся природным ландшафтом, мониторингу влияния антропогенных факторов, экологии и сохранению редких находящихся под угрозой исчезновения видов.

В нашей республике достигнуты определенные результаты по обеспечению устойчивости природных водных экосистем, определению состава гидробионтов, использованию их биоресурсов, влиянию антропогенных факторов на уязвимые и исчезающие виды, охране особо важных водных экосистем, мониторингу их биоресурсов, а также оценке состояния популяций редких и эндемичных видов. В этой связи, в частности, в охране особо важных водных экосистем, мониторинге биоресурсов, оценке состояния популяций редких и эндемичных видов достигнуты определенные результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы² определены важные задачи по “выведению на новый уровень сотрудничества в области экологии, предотвращения загрязнения окружающей среды и охраны природы в Центральной Азии”. Исходя из этих задач, определение современного состава двустворчатых моллюсков Кашкадарьинского бассейна, оценка влияния абиотических, биотических и антропогенных факторов на состояние видов в различных водоёмах, анализ санитарного состояния вод с помощью сапроно-индикаторных видов являются приоритетными и приобретают важное научно-практическое значение.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, предусмотренных Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан №914 “О ведении государственного учета, учета объемов использования и государственного кадастра объектов животного и

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

растительного мира” от 7 ноября 2018 года, Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан №484 “Об утверждении стратегии по сохранению биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годы” от 11 июня 2019 года, а также другими нормативно-правовыми документами, принятым в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики: Данная работа выполнена в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

Степень изученности проблемы. Изучение видового состава двухстворчатых моллюсков зарубежными учёными проводили В.К. Harvey et al. (1989), I. Anderson (1991), H. Thorp James, Covich Alanp (1990, 1991), D.C. Aldridge (1999, 2000), H. Dan, Gu Ruobo (2002), P. Bouchet (2007), G.P. Alyokhina, I.A. Misetov, M.V. Puzakova (2007), A.E. Bogan (2010, 2011), H. Markus (2010), A.E. Bogan (2010), Annabelle Cuttelod et al. (2010, 2011) и D.D. Danilin (2012, 2014). Исследование хозяйственной значимости моллюсков проводили K. Nagel, G. Badino (2001), Maria Haws (2002), A.V. Korniyushin (2003, 2004, 2007), E.A. Moorkens, M.J. Costello (2005), P. Momir, C. Bela, S. Vladica (2006), N. Mamangkey et al (2009), R.N. Mamangkey, H.A. Salmon, P.C. Southgate (2009), S. Rahayu et al. (2009, 2010), V.E. Panov, et al. (2009), S. Yoshida, S. Rahayu et al. (2013), Y. Sata. (2013, 2014).

В странах СНГ изучение распространения, морфологии, зоогеографии, систематики моллюсков отражены в научных работах В.И. Жадина (1948, 1952), Я.И. Старобогатова, В.В. Пирогова (1971), А.Ф. Алимова (1981), С.И. Андреева, М.В. Винарского и др. (2006), Г.П. Алёхина и др. (2007), Н.И. Андреева и др. (2008, 2009), С.В. Межжерина и др. (2011), Р.А. Михайлова (2014) и других.

